Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellash asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiya.....	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida.....	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи.....	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili.....	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar.....	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi.....	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля).....	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish.....	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar.....	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari.....	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari.....	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

Xamrakulov Azamat Baxritdinovich

O'zbekiston Respublikasi

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini

himoya qilish qo'mitasi Samarqand viloyat

hududiy boshqarmasi bo'lim boshlig'i o'rinbosari

e-mail: hamrakulovazamat1988@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Unda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kreativ yondashuvlar, mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va xizmat sifatini oshirish orqali kompaniyalar o'z pozitsiyalarini qanday mustahkamlashi mumkinligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida mahalliy reklamachilarning rivojlanish imkoniyatlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: reklama bozori, raqobatbardoshlik, innovatsiya, xizmat sifati, mijoz ehtiyoji, marketing strategiyasi.

Abstract: This article explores effective strategies to enhance competitiveness in the advertising services market. It examines the implementation of innovative technologies, creative approaches, identification of customer needs, and improvement of service quality as key factors for strengthening companies' market positions. The paper also discusses international practices and the development opportunities for local advertising agencies.

Key words: advertising market, competitiveness, innovation, service quality, customer needs, marketing strategy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные способы повышения конкурентоспособности на рынке рекламных услуг. Анализируется внедрение инновационных технологий, креативные подходы, выявление потребностей клиентов и повышение качества услуг как факторы усиления рыночных позиций компаний. Также приведён обзор международного опыта и возможностей развития местных рекламных агентств.

Ключевые слова: рекламный рынок, конкурентоспособность, инновации, качество услуг, потребности клиентов, маркетинговая стратегия.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlik har qanday sohaning muvaffaqiyatli rivojlanishi va barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, xizmatlar sektori, xususan, reklama xizmatlari bozori bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan, shu bilan birga yuqori raqobat muhitiga ega yo'nalishlardan biridir. Reklama — bu nafaqat mahsulot yoki xizmatni targ'ib qilish vositasi, balki kompaniyaning bozor imijini shakllantiruvchi va mijozlar bilan barqaror aloqani ta'minlovchi strategik vositadir.

Raqobatning ortishi, texnologik innovatsiyalar, iste'molchilarning ehtiyoj va talablarining o'zgarib borishi reklama xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalardan yangicha yondashuv va samarali boshqaruv strategiyalarini talab qilmoqda. Bu holat reklama agentliklari o'rtasida nafaqat sifatli xizmat ko'rsatish, balki mijoz ehtiyojini chuqur tahlil qilish, kreativlik va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardosh ustunlikka erishishni taqozo etadi.

Ushbu maqolada reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning dolzarb yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalar, milliy va xorijiy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali marketing strategiyalari va innovatsion yondashuvlar orqali kompaniyalar o'z pozitsiyalarini qanday mustahkamlashi mumkinligi yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Reklama xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshlik masalasi hozirgi davrda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar reklama faoliyatining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati, marketing strategiyalari bilan o'zaro aloqasi, raqobat ustunligini shakllantirish omillari va innovatsion yondashuvlarning roliga bag'ishlangan.

Mahalliy mualliflar orasida E.Q.Karimov, Sh.X.Xayitov, M.R.Usmonxo'jayev kabi iqtisodchi olimlar tomonidan raqobatbardoshlik nazariyasi va xizmatlar sohasida raqobat muhitining shakllanishi bo'yicha muhim



ilmiy ishlanmalar mavjud. Xususan, E.Q.Karimovning xizmat ko'rsatish sohasida marketingni rivojlantirishga oid tadqiqotlarida reklama vositalarining samarali ishlatilishi va bozor segmentatsiyasi orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash g'oyalari ilgari surilgan. [1, 2, 3]

Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda reklama sohasidagi raqobat masalalari yanada chuqurroq o'rganilgan. Filipp Kotlarning "Marketing management" [4] (Marketingni boshqarish) nomli asarida reklama va targ'ibot vositalari orqali iste'molchilarning ongiga ta'sir ko'rsatish va bozorni egallash strategiyalari asoslab berilgan. M. Porterning "Competitive Advantage" [5] (Raqobat ustunligi) asarida esa kompaniyaning raqobatdoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar, innovatsion yondashuvlar va strategik boshqaruv modellari batafsil bayon etilgan.

So'nggi yillarda reklama xizmatlari raqamli texnologiyalar asosida rivojlanib bormoqda. Shu bois zamonaviy adabiyotlarda raqamli marketing, onlayn reklama platformalari (Google Ads, SMM, influencer marketing va h.k.) orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari keng tahlil qilinmoqda. Xususan, R.Ryan va C.Jonesning "Understanding Digital Marketing" nomli asarida zamonaviy reklama vositalari va ularning bozordagi samaradorligiga doir aniq metodologiyalar keltirilgan. [6]

O'zbekiston sharoitida esa reklama xizmatlari bozorida to'liq raqobat muhiti hali to'la shakllanmaganligi, ayrim agentliklarning professional darajasi pastligi, kreativlik va innovatsion yondashuvlarning yetarli emasligi ko'plab adabiyotlarda tanqidiy yondashuvda yoritilgan. Shu bois, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish uchun milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish zarurati seziladi. [7]

Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar reklama xizmatlari bozorida raqobat muhitini tahlil qilish, ilg'or strategiyalarni aniqlash hamda milliy reklama sohasi taraqqiyotini ta'minlashda mustahkam nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish omillarini aniqlash va baholash maqsad qilingan. Maqolada qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun kompleks yondashuv asosida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Tahlil va sintez usuli – reklama xizmatlari bozoridagi mavjud holat, soha tarkibi, asosiy ishtirokchilar va raqobat darajasini o'rganishda qo'llanildi. Turli manbalar asosida reklama bozorining tarkibiy elementlari sintez qilindi.

Taqqoslash usuli – milliy reklama xizmatlari bozorining xorijiy tajribalar bilan solishtirish orqali farqli va o'xshash jihatlari, ustunliklari hamda kamchiliklarini aniqlashda ishlatildi.

Empirik tadqiqot usullari – reklama agentliklari va iste'molchilar orasida o'tkazilgan so'rovnomalar, intervyular hamda amaliy kuzatishlar asosida ma'lumotlar yig'ildi va tahlil qilindi. Jumladan, 20 ta reklama agentligi faoliyati va ularning mijozlarga taklif etayotgan xizmat turlari o'rganildi.

SWOT-tahlil – reklama xizmatlari bozorining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar va xavf-xatarlar aniqlanib, strategik takliflar ishlab chiqildi.

Grafik va statistik usullar – yig'ilgan ma'lumotlar asosida jadval, grafik va diagrammalar tuzilib, raqamli ifodalarning vizual tahlili amalga oshirildi. Statistik ma'lumotlar asosida raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi.

Tadqiqot davomida foydalanilgan manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar, marketing va reklama sohasiga oid darsliklar, hamda reklama kompaniyalari faoliyati bo'yicha amaliy kuzatuvlar asos qilib olindi. [7]

Ushbu metodologik yondashuv reklama xizmatlari bozorida raqobat muhitining chuqur va har tomonlama o'rganilishini, muammo va imkoniyatlarni aniq belgilashga xizmat qildi hamda maqolada bildirilgan ilmiy xulosalarning asoslanganligiga kafolat beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston reklama xizmatlari bozorining hozirgi holati, raqobat darajasi, asosiy ishtirokchilar va ularning faoliyat yo'nalishlari o'rganildi. Statistik ma'lumotlar va amaliy kuzatuvlar asosida bozorning muhim xususiyatlari aniqlanib, tahlil qilindi. [7]

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi bilan reklama xizmatlariga bo'lgan talab sezilarli darajada oshgan. Ayni vaqtda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan reklama agentliklarining aksariyati an'anaviy reklama shakllaridan (tashqi reklama, bosma ommaviy axborot vositalari) raqamli reklama (sotsial media marketing, kontekstli reklama, SEO va SMM xizmatlari)ga o'tmoqda. Bu esa bozorda yangi o'yinchilar paydo bo'lishiga va raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. [9] O'tkazilgan SWOT tahlil asosida quyidagi xulosalar aniqlandi:



- Kuchli tomonlar – internet texnologiyalarining ommalashuvi, yosh auditoriyaning raqamli reklama platformalariga bo'lgan yuqori qiziqishi, mahalliy reklama agentliklarining moslashuvchanligi;
- Zaif tomonlar – kreativ yondashuvlarning yetishmasligi, kadrlar salohiyatini oshirish zarurati, bozorni tahlil qilish va strategik rejalashtirishdagi kamchiliklar;
- Imkoniyatlar – xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro reklama texnologiyalarini joriy etish, raqamli marketing platformalari orqali eksportga xizmat ko'rsatish;
- Tahdidlar – kuchli xorijiy raqobatchilarning kirib kelishi, texnologik yetishmovchiliklar, reklama bozorini tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar.

So'rovnoma asosida aniqlanishicha, mijozlarning reklama agentliklarini tanlashdagi asosiy mezonlari quyidagicha taqsimlandi [11]:

- Xizmat sifati va natijadorlik – 42%;
- Narx siyosati – 27%;
- Yaratilayotgan reklamani kreativligi – 18%;
- Agentlikning tajribasi va obro'si – 13%.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun reklama agentliklari birinchi navbatda xizmat sifati oshirish, kreativ yondashuvlarni kengaytirish va mijozlar ehtiyojini chuqur o'rganishga e'tibor qaratishlari lozim.

- Reklama xizmatlari bozori tezkor rivojlanayotgan va yuqori raqobatga ega sohaga aylangan;
- Raqamli reklama vositalari agentliklar uchun asosiy raqobat quroliga aylanishi mumkin;
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ijodiy yondashuvni kuchaytirish va maqsadli auditoriyani aniqlash reklama agentliklarining bozor pozitsiyasini mustahkamlovchi asosiy omillardir;
- Kadrlar salohiyati va zamonaviy marketing bilimlarini oshirish sohada uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi (1-2-jadval).

1-jadval. Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari mavzusidagi SWOT tahlili¹.

Kuchli tomonlar (S – Strengths)	Zaif tomonlar (W – Weaknesses)
Bozorda reklama xizmatlariga talabning ortib borishi	Kreativ yondashuv va innovatsion g'oyalar yetishmasligi
Ijtimoiy tarmoqlarda tez va samarali auditoriyaga chiqish imkoniyati	Kadrlar malakasining pastligi va tajriba yetishmasligi
Mahalliy agentliklarning moslashuvchanligi va qulay narx siyosati	Bozordagi xizmatlar differensiallashmagan (o'xshash xizmatlar)
Brendlar va mahsulotlarni targ'ib qilishda reklamani kuchli vosita bo'lishi	Agentliklar o'rtasidagi hamkorlik va tajriba almashinuvi sustligi
Imkoniyatlar (O – Opportunities)	Tahdidlar (T – Threats)
Xalqaro ilg'or tajribalarni joriy etish imkoniyati	Katta xorijiy reklama kompaniyalari bilan kuchli raqobat
Raqamli marketing va reklama platformalarining rivojlanishi	Huquqiy tartibga solishdagi noaniqliklar va nazoratning sustligi
Eksport yo'nalishida raqamli xizmatlarni kengaytirish	Iste'molchilar orasida reklama ishonchliligining pasayishi
Davlat tomonidan xizmatlar sohasiga e'tibor va qo'llab-quvvatlash	Texnologiyalarning tez yangilanishi va ularga moslashishdagi qiyinchiliklar

2-jadval. Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha SWOT tahlil asosida strategik tavsiyalar².

Strategiya turi	Tavsif	Strategik yo'nalishlar
SO strategiyasi (Kuchli tomonlar + Imkoniyatlar)	Ichki kuchli jihatlardan va tashqi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish.	- Mahalliy reklama agentliklarining moslashuvchanligidan foydalangan holda raqamli marketing platformalarini faol joriy etish; - Internet tarmoqlari va ijtimoiy media orqali eksportga yo'naltirilgan reklama xizmatlarini kengaytirish; - Brend targ'iboti va kreativ kontent orqali xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy etish.

1 Muallif ishlanmasi
2 Muallif ishlanmasi.



Strategiya turi	Tavsif	Strategik yo'nalishlar
WO strategiyasi (Zaif tomonlar + Imkoniyatlar)	Zaif jihatlarni tashqi imkoniyatlar yordamida bartaraf etish.	- Kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha trening va malaka oshirish dasturlarini xorijiy tajribaga tayangan holda yo'lga qo'yish; - Kreativlik va innovatsiyani rag'batlantirish uchun xalqaro master-klasslar, tanlovlar va grantlarni tashkil etish; - Tashqi investitsiyalarni jalb etib, texnologik bazani yangilash va diversifikatsiyalash.
ST strategiyasi (Kuchli tomonlar + Tahdidlar)	Ichki kuchli jihatlar orqali tashqi tahdidlarning oldini olish.	- Mahalliy agentliklarning moslashuvchanligi va past narx siyosati orqali yirik xorijiy raqobatchilarga qarshi tura olish; - Raqamli reklamani kuchli orqali auditoriyaga aniq va ishonchli kontent yetkazib, reklama ishonchligini tiklash; - Davlat bilan hamkorlikda reklama bozorini tartibga soluvchi aniq mexanizmlarni ishlab chiqish.
WT strategiyasi (Zaif tomonlar + Tahdidlar)	Zaifliklarni bartaraf etish va tahdidlar ta'sirini minimallashtirish.	- Bozorni tartibga soluvchi qonunchilikda qat'iy normalarni ishlab chiqib, sifat nazoratini kuchaytirish; - Reklama agentliklari o'rtasida klaster yoki assotsiatsiyalar tuzish orqali tajriba almashinuvi va hamkorlikni mustahkamlash; - Agentliklar uchun innovatsion grantlar, startap fondlari orqali texnologik yangilanishni qo'llab-quvvatlash.

1-jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, bozor ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish va xizmatlar sifati hamda samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Reklama agentliklari internet va raqamli platformalar (Google Ads, Facebook, Instagram, TikTok, Telegram) imkoniyatlaridan keng foydalanib, maqsadli auditoriyaga tez va samarali tarzda yetib borishi lozim. Shu bilan birga, mobil moslashgan reklamalar, videoroliklar va interaktiv reklama formatlarini kengaytirish tavsiya etiladi. [12]

Reklama mahsulotlarining kreativ darajasi ularning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, agentliklar doirasida kreativ guruhlar tashkil etish, mahalliy va xalqaro kreativ tanlovlarda ishtirok etish rag'batlantirilishi zarur.

Reklama, marketing, raqamli dizayn va kommunikatsiya yo'nalishlarida yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar va treninglar tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga, xorijiy tajribaga ega mutaxassislarni jalb qilish foydali bo'ladi. [13]

Har bir agentlik o'zining noyob raqobat afzalliklarini aniqlab, ularni xizmat strategiyasiga aylantirishi zarur. Bunda SWOT tahlil asosida individual strategiyalar ishlab chiqish, bozor segmentatsiyasi va brend pozitsiyalash jarayonlarini professional tarzda yo'lga qo'yish kerak.

Reklama agentliklari o'rtasida klasterlar yoki uyushmalar shakllantirish orqali sohada sog'lom raqobat va o'zaro hamkorlik muhitini kuchaytirish mumkin. Bu tajriba almashish, texnologik yangiliklardan xabardor bo'lish va umumiy loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Reklama sohasini tartibga soluvchi qonun va me'yorlar zamon talablariga javob berishi lozim. Shu bois, reklama etikasi, yolg'on va chalg'ituvchi reklamalarga qarshi kurashish, auditoriyaga to'g'ri ma'lumot yetkazish tamoyillari mustahkamlab borilishi kerak. [14]

Reklama xizmatlari bozorida faoliyat yurituvchi kichik agentliklar uchun subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, startap fondlari orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirilishi lozim. Bu bozorni yanada faollashtirish va yangi ishtirokchilarni jalb qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklama xizmatlari sohasining ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, uning raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Reklama xizmatlari bozori O'zbekistonda jadal rivojlanmoqda, ayniqsa raqamli reklama (SMM, kontekstli reklama, SEO, veb-bannerlar) eng tez sur'atlarda kengaymoqda. Bozorda reklama agentliklari o'rtasidagi raqobat kuchaygan bo'lsa-da, xizmatlar sifati, kreativlik darajasi va texnologik yangilanishlar hali to'laqonli darajada emas.

Mijozlar reklama agentligini tanlashda asosan xizmat sifati, kreativlik, narx siyosati va natijadorlik kabi mezonlarga e'tibor qaratmoqda. Raqobatbardoshlikni oshirishda asosiy omillar sifatida innovatsion



yondashuvlar, malakali mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar va strategik boshqaruv muhim rol o'ynaydi. SWOT tahlil asosida reklama xizmatlari bozorida nafaqat kuchli tomonlar va imkoniyatlar, balki zaif jihatlar va tashqi tahdidlar mavjudligi ham aniqlandi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, reklama agentliklari raqamli transformatsiyani tezlashtirishlari zarur, ya'ni yangi texnologiyalarni (AI, big data, analitik vositalar) joriy etish orqali raqamli reklama formatlariga to'liq o'tish lozim;

Ikkinchidan, reklama sohasida kreativlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish tizimi yaratilishi kerak. Bunda kreativ g'oyalar bo'yicha tanlovlar, grant dasturlari va xalqaro tajriba almashinuvlari muhim o'rin tutadi;

Uchinchidan, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimi takomillashtirilmog'i lozim. Oliygothlar va amaliyotchi mutaxassislar hamkorligida amaliy kurslar tashkil etilishi foydali bo'ladi;

To'rtinchidan, mahalliy reklama agentliklari uchun klasterlar va uyushmalar tashkil etish orqali tajriba almashish, hamkorlikda ishlash va bozor segmentatsiyasini kuchaytirish tavsiya etiladi;

Beshinchidan, reklama xizmatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza qayta ko'rib chiqilishi zarur, ayniqsa yolg'on, chalg'ituvchi va noqonuniy reklamalarning oldini olishda qat'iy tartib o'rnatilishi kerak;

Oltinchidan, davlat tomonidan kichik va o'rta reklama agentliklarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kuchaytirilishi lozim, jumladan, startaplar uchun grantlar, soliq imtiyozlari va texnologik modernizatsiyaga kredit ajratilishi mumkin;

Yettinchidan, xorijiy tajriba asosida eksportbop raqamli reklama xizmatlarini rivojlantirish, bu orqali nafaqat ichki, balki tashqi bozor uchun ham raqobatbardosh xizmatlar yaratish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov E.Q. Xizmat ko'rsatish sohasida marketingni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 232 b.
2. Xayitov Sh.X. Raqobatbardosh iqtisodiyotning shakllanishi: nazariya, metodologiya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017. – 198 b.
3. Usmonxo'jayev M.R. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlar sohasini boshqarish. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020. – 215 b.
4. Kotler Ph. Marketing Management. 15th ed. – Pearson Education, 2016. – 832 p.
5. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 2004. – 592 p.
6. Ryan D., Jones C. Understanding Digital Marketing: Marketing Strategies for Engaging the Digital Generation. – Kogan Page, 2020. – 368 p.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti: <https://stat.uz> (murojaat qilingan sana: 2025 yil 2-may)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5112-sonli qarori. 2021 yil 30 mart.
9. McKinsey & Company. Global Advertising Trends Report. – 2023. [<https://www.mckinsey.com>]
10. Davletshin M.R. Strategicheskiy marketing v sfere uslug. – Moskva: INFRA-M, 2019. – 336 s.
11. Яковлева Е.А. Цифровой маркетинг и реклама в эпоху цифровизации. – Санкт-Петербург: Питер, 2021. – 284 с.
12. Chaffey D. Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. 7th ed. – Pearson, 2019. – 688 p.
13. Abdulkarimov F.B. Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand: SamISI, 2011, 156 b.
14. Pardayev O.M. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T. : Fan va texnologiya, 2017, 284 b.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. -T. : "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2022-yil, 28-yanvar – <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
16. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining O'zbekiston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi (2022-yil yanvar-dekabr) hisoboti.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-sonli "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
